New methods and requirements for foreign language teaching in the country have been developed in accordance with the Recommendations of the European Framework for Assessment of Knowledge and Skills of Foreign Language Teachers (CEFR). According to this, textbooks have been created for students of secondary schools and vocational colleges. In accordance with these requirements, classrooms are equipped with stands and new information and communication technologies. The demand for learning a foreign language is growing day by day. Foreign language science is divided into four aspects (reading, listening writing, and speaking), each of which provides specific concepts and skills. Educational technology is the effective use of modern information technology in the educational process. It also aims to improve the quality and effectiveness of education through the introduction of modern innovative technologies in the educational process. In particular, there are several advantages to using such information and communication technologies in learning a foreign language. The role of modern technology in language learning and teaching is invaluable. The use of technology is useful in every aspect of learning a foreign language (reading, reading, listening and speaking). For example, to listen and understand, of course, it is impossible to do this process without a computer, player, CD. Listening is one of the most important parts of language learning. This requires the student to pay attention to the speaker's pronunciation, grammatical rules, vocabulary, and meanings at the same time. An important factor in the use of modern technologies in the educational process is the ability of students to know and use information and communication technologies. Teaching and learning a foreign language using modern technology is one of the most effective ways. In this process, including: - when using computers, the student can watch and hear videos, demonstrations, dialogues, movies or cartoons in a foreign language; - It is possible to listen and watch radio broadcasts in foreign languages and TV programs; - use of tape recorders and cassettes, which are more traditional methods; - CD players are available. The use of these tools will make the process of learning a foreign language more interesting and effective for students. Today, interactive games are becoming a tradition in schools. It is well known that a variety of games help students demonstrate their abilities, focus, increase their knowledge and skills, and become stronger. The basis of the use of game technology is the activity that activates and accelerates the student. According to psychologists, the psychological mechanisms of playful activity are based on the fundamental needs of the individual to express themselves, to find a stable place in life, to self-manage, to realize their potential. At the heart of any game should be the generally accepted principles and tactics of education. Learning games should be based on the subjects. During the games, the student is more interested in this activity than in a normal lesson and works more comfortably. It should be noted that the game is, first of all, a way of teaching. Students are interested in playful lessons, they strive to win, and the teacher uses them to educate the student. The student is interested in believing that he or she can play, speak, listen, understand, and write in English. We know that in the current educational process, the student must be a subject. Focusing on more interactive methods will increase learning effectiveness.

References:

1. Муминова, Ф. М. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish / Ф. М. Муминова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 18 (308). — С. 590-592. — URL: <https://moluch.ru/archive/308/69404/> (дата обращения: 26.05.2021).



OBJECTIVES AND TASKS OF MOTHER TONGUE AND LITERATURE EDUCATION, NECESSARY MINIMUM REQUIREMENTS FOR STUDENT LEVEL OF TRAINING

Aslonova Shahnoza

A Teacher of native language and literature, at school No: 25,
Kyzyltepa district, Navoi region

Annotation: This article describes the goals and objectives of teaching native language to schoolchildren.

Keywords: stages of education, purpose of science, tasks of science, innovative technologies, motivation of students.

The main purpose of teaching the mother tongue at all stages of education is to form the communicative competence of learners to work in everyday, scientific and professional fields. Communicative competence of the mother tongue is the ability to apply the knowledge, skills and abilities acquired in the mother tongue in the process of communication. Competences are divided into the following groups: Linguistic competence - knowledge of language levels (phonetics, vocabulary, grammar) and the means of language expression (reading techniques, understanding the thoughts and content of others, expressing ideas in writing). Sociolinguistic competence is the ability of a speaker to choose the appropriate linguistic form and means of expression based on a particular speech situation, communicative goal, and desire. Pragmatic competence refers to the ability to get out of difficult situations by repeatedly asking, apologizing, etc., when misunderstandings arise in a communicative situation, and to make appropriate use of the practical possibilities of the acquired knowledge. In order for the student to think independently, to understand the opinions of others, to develop a culture of speech and communication, the mother tongue education must meet the standard requirements, and the mother tongue must have sufficient communicative and linguistic competence. To this end, the main content of this subject provides the following requirements: 1. Acquisition of communication skills in the native language (communicative competence). 2. Acquisition of sufficient knowledge (grammatical competence) to be able to use language materials and tools in speech. This content aims to teach the mother tongue through communicative competence. 1. Communicative competence. The State Education Standard for Mother Tongue sets the standard of knowledge and skills required in each class for the three main types of speaking activities in a language: reading, speaking, and writing. At the same time, the student is able to expressively read an unfamiliar text, understand the opinion of others and the content of the text and retell it orally, express ideas in a logical sequence, use language means of expression appropriately and effectively, spelling literacy the dynamics of the acquisition of such competencies. 2. Grammatical competence. The standard defines the language material, language tools and grammatical knowledge, skills and competencies to be developed for each type of speaking activity. 17 To provide scientific and practical information on the phonetics, lexicon and grammar of the studied Uzbek language for the wide and correct use of oral and written forms of speech. to master the basic rules of pronunciation, spelling and punctuation, to be able to convey a particular message or information in various forms, to keep the necessary paperwork for everyday life, to study works of art, science, politics, it is necessary to make reasonable use of the opportunity to express one's opinion about them in a correct way, both orally and in writing. The content of mother tongue education includes the above two components and is reflected in each of the DTS of grades 1-4, 5-9 and academic lyceums and vocational colleges. In the mother tongue continuing education system, primary education is the post-preschool level. Linguistic, lingvopsychological, sociopsychological and paralinguistic features of language education in the primary and general secondary, secondary special education stages of continuing education, and, most importantly, communicative, formed on the basis of general didactic and specific methodological features, grammatical and general educational tasks are defined, in particular, graduates are able to use their native language freely, effectively and correctly in all spheres of social, economic and cultural life, in all forms of communication and communication, to fully enjoy its unlimited possibilities. , must have the necessary skills and capabilities.

References:

1. Teaching mother tongue Tashkent 2019



“MIJOZ” SO’ZINING YAPON LINGVOKULTUROLOGIYASIDAGI TALQINI

Axmedova Saodat

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

2-bosqich magistranti

Telefon: +998(90)135-45-89

saodathonim1@yahoo.com

Annotatsiya: Yaponiyada xizmat ko'rsatish sohasida mijozlar qadr-qimmatini juda yuqori baholani. Mijoz manfaatlari barcha narsadan ustun qo'yiladi. Mijozlar bilan ishlashi kutilgan yangi ishga kelgan xodimlar maxsus treninglar orqali mijozlar bilan muloqot qilishni, unga nisbatan ishlatiladigan so'z va iboralarni o'rganadilar. Ushbu maqolada “mijoz” so'zining yapon lingvokulturologiyasidagi ahamiyati, leksik-semantik maydoni haqida muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: mijoz, 客, mehmon, muloqot, xizmat ko'rsatish

Til madaniyatini aks ettiruvchi ko'zguga qiyoslanadi. Har bir xalq tilida shu xalqning qadriyatlarini, an'analari, milliy xarakteri va milliy-madaniy komponentlari mujassamdir. Lingvokulturologiya – bu tilshunoslik va madaniyatshunoslikning tutashgan qismini o'rganadigan soha, tilda muhrlanib qolgan va aks etadigan millatning madaniy voqeliklarini predmet sifatida tadqiq etadi.

Yapon tilida “mijoz” tushunchasi milliy xarakterga ega bo'lgan, yapon xalqining madaniy qadriyatlarini, milliy mentalitetini o'z ichiga qamrab olgan so'z sanaladi. “Mijoz” so'zi haqida so'z yuritishdan oldin bu so'zning ma'nolari haqida ma'lumotga ega bo'lish muhim hisoblanadi. “Mijoz” so'zi hozirgi kunda biznes va xizmat ko'rsatish sohasida keng tarqalib borayotgan so'z deb aytish mumkin. O'zbekistonda rus tilining nufuzi baland bo'lgan sovet davrida mijoz so'zi o'rniga klient so'zi keng iste'molda bo'lgan. Mustaqillik yillarida o'zbek tilining nufuzini oshirishga qaratilgan sa'y harakatlar tufayli “mijoz” so'zi xizmat ko'rsatish sohasida keng qo'llaniladigan so'zga aylanib bormoqda.

O'zbek tilidagi mijoz so'zi arab tildan olingan bo'lib, “ruxsat etilgan, guvohnomasi bor” degan ma'nolarni anglatar ekan. “O'zbek tilining izohli lug'ati” da uning ikki ma'nosi keltirilgan:

1. Sotuvchiga nisbatan doimiy xaridor, xaridorga nisbatan doimiy sotuvchi
2. Biror ish-yumush bilan doim aloqada bo'lgan shaxs. [1:589b.]

O'zbek tilining izohli lug'atida mijoz so'ziga sinonim sifatida klient so'zi ham keltirilgan. Klient so'zi lotincha “cliens, clientis” homiylik ostidagi kishi degan ma'noni anglatadi. Mazkur lug'atda klient so'ziga quyidagicha izoh berilgan:

1. O'z ishini olib borishni advokat, notarius va shu kabilarga topshirgan shaxs.
2. Doimiy xaridor yoki buyurtmachi; mijoz. [1: 383 b.]

Uz.opentran.net saytida “mijoz” so'ziga “do'kondan yoki biznesdan tovarlar yoki xizmatlarni sotib oluvchi shaxs yoki tashkilot” deb izoh berilgan.

Demak, mijoz so'zini tovar yoki xizmatlarni sotib oluvchi shaxs yoki tashkilot sifatida tushunish maqsadga muvofiq bo'lar ekan.

Yapon tilida “mijoz” so'zi yuqorida keltirilgan ma'nolaridan kelib chiqib, “客” (kokyaku, kokaku, kyaku) deb tarjima qilinadi. Endi esa yuqorida “mijoz” va “klient” so'zlarining ma'nolarini ko'rib chiqqanimiz kabi yapon tilida ham “顧客”, “客” so'zlarining ham lug'atlarda izohlanishini ko'rib chiqamiz.

精選版 日本語大辞典 (Shogakukan, 2006) Yapon tili katta izohli lug'atida 客 so'ziga quyidagicha izoh berilgan:

1. その人の家、居所へたずねてくる人。また、招かれてくる人。まろうど。かく。(odamning uyi, yashash joyiga tashrif buyuradigan odam, yoki taklif etilib keladigan shaxs. Boshqa joydan kelgan shaxs, mehmon)

2. 対価を払って、品、労力などを求めに来る人。買い手、観客、乗客など。(h-aq to'lash evaziga tovar, mehnat kuchi, xizmat kabilarni talab etib keluvchi shaxs. Xaridor, tomoshabin, yo'lovchi kabilar.)

3. 旅をしている人。また、自分の家を出て他人の家や宿に寄食している人。あるいは、旅行、寄寓することにもいう。(safarga chiqqan odam. Shuningdek, o'z uyidan chiqib boshqaning uyi yoki boshpanasida tunab yeb ichayotgan odam. Yoki vaqtinchalik boshqa birovning uyida yashab turishga ham aytiladi)



4. 自分の外にあって、自分と対立していること。主であるものに対すること。また、そのもの。客位に立つこと。また、そのもの。(O'zidan tashqarida bo'lib, o'ziga qarshi turish. Mezbon, xo'jayinga nisbatan yuzma yuz turish, yoki shu holatdagi shaxs.) [5]

広辞苑(2011) Kojien yapon tili izohli lug'atining 8-nashrida “客” so'zi quyidagicha izohlanadi:

1. 訪問してくる人。まろうど。「一をする」(tashrif buyurib kelgan odam, mehmon)

2. 自己に相對するもの⇔主(o'ziga qarshi bo'lgan shaxs)

3. 商売で料金を払う側の人。(tijoratda pul to'laydigan tomon, shaxs)

4. 接待のための道具を数える語 「吸物碗5客」(mehmonga tortiladigan idishlarni sanash uchun ishlatiladigan so'z) (5 kosa (porsiya)sho'rva) [4]

Qadimda, Yaponiyada mehmonni まれびと (稀人) deb atashgan. まれびと xudo degan ma'noni anglatgan. U o'zga dunyodan vaqtni belgilab kelib, odamlarga baxt-saodat baxsh etib qaytib ketadigan xudo sanalgan. Odamlar unga hurmat ehtirom ko'rsatib, uni turli taniqli taomlar bilan siylashgan. Heyan davrida “客” so'zi keng tarqalib まれびと so'zi anglatadigan ma'no o'zgarib bordi. Odamning o'ziga nisbatan ijtimoiy mavqei baland odam degan ma'noni anglatadigan bo'lib, undan keyin tashrif buyuradigan barcha odamlarni xudo deb o'ylaydigan bo'lishdi. [2:25b.]

Rus tilshunos olimi A. Palkin rus va yapon lingvomadaniyatida “客” obrazi bo'yicha tadqiqot ishi olib borgan. U o'z tadqiqotida ona tilisi rus va yapon bo'lgan til egalari o'rtasida assotsiativ tajriba usulida so'rovnoma o'tkazgan. 2001-2001 yillarda olim Yaponiyaning Osaka universitetida 18-23 yosh orasidagi 140 nafar talabadan assotsiativ tajriba asosida anketa so'rovnomasi olib borgan. So'rovnoma natijalariga ko'ra yapon respondentlari “客” so'zining assotsiativ maydoniga 店、主人、マスター、もてなし、もてなす、神様、店員、接待、来る、大事、大切、ホテル、ウェイトレス、ウェイター、歓迎、挨拶、パーティ、いらっしやいませ、座布団、招待、レストラン、タクシー、人 so'zlarini kiritishgan.[3: 185]

客 so'zining barcha ma'nolarini o'zbek tilidagi bir so'z bilan ifodalash birmuncha mushkuldir. Bu so'z o'zbek tilida “mehmon”, “mijoz”, “iste'molchi”, “xaridor” sememalari bilan ifodalanishi mumkin.

客 so'zi bilan birga ishlatiladigan so'zlar sifatida 客を呼ぶ, 客を寄せる, 客を集める, 客が付く, 客をする, 客が来る, 訪問する kabilar yapon tili kollokativ lug'atida keltirilgan. 客を呼ぶ jumlasini “mijozni chaqirmoq” degani bo'lib, o'z biznesiga, do'koniga va sh. k. larga mijozlarni jalb qilmoq ma'nosini anglatadi. 客が付く esa yangi boshlangan biznes, ish, yangi ochilgan xizmat ko'rsatish obyektiga nisbatan mijozlarning xizmatdan foydalana boshlashi, xarid qila boshlashini anglatadi. 客をする kelgan mehmonni noz ne'matlar bilan siylash, mehmon qilishni ifodalaydi.

Mehmon yoki mijozga murojaat qilishda 客 so'zi hurmat shaklini olib “お客さん、お客様” shakllarini oladi. お old qo'shimchasi va さん、様 qo'shimchalari hurmat qilinishi lozim bo'lgan atash otlari bilan qo'llaniladi. Masalan, birovning oila a'zolariga nisbatan お母さん、お母様、お父さん、お父様、お姉さん、お姉さま、お兄さん、お兄様 kabi so'zlar qo'llaniladi. 様 qo'shimchasi さん old qo'shimchasiga nisbatan yanada yuqori darajadagi hurmatni ifodalaydi. Bundan ko'rinadiki, yaponlarning mijozlarga nisbatan お客様 deb murojaat qilishi ularga nisbatan chuqur hurmat va e'tibor kuchli ekanligidan darak beradi.

Yaponlarda “お客様は神様” degan naql mavjud. Bu naqlni o'zbek tiliga o'giradigan bo'lsak “Mijoz bu xudo” degan ma'noni bildiradi. Bu naql mijoz doim haq degan ma'noda ishlatiladi. Yaponiyada mijoz xizmat ko'rsatuvchi xodimga qanday muomala qilmasin xodim unga xushmuomalalik bilan javob qaytarishi, hech qachon unga nisbatan qo'pol muomalada bo'lmasligi lozim. Mijoz yapon xizmat ko'rsatish sohasining barcha jabhalarida diqqat markazida turadi. Barcha olib boriladigan ishlar mijoz ehtiyojlarini qondirish, uni rozi qilish maqsadida amalga oshiriladi. Mijozga yo'nalganlik yapon xizmat ko'rsatish sohasida yuqori sifat va biznesda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omili hisoblanadi.

Yaponiyaning xizmat ko'rsatish sohasi mijozga bo'lgan alohida e'tibor va izzat-ikromga yo'g'rilgan munosabat tufayli butun dunyo e'tiboriga tushgan. Boshqa davlatlar ham o'z xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda yaponlarning xizmat ko'rsatish uslubidan andaza olishga intilmoqdalar. Yaponiyada xizmat ko'rsatish bu shunchaki haq olish evaziga yuzaga keladigan xizmat ko'rsatuvchi va mijoz o'rtasidagi iqtisodiy munosabatdangina iborat emas, bu sohada yapon madaniyati, qadriyatlari, qolaversa, yapon mentaliteti mujassam bo'lgan. □so'zining mijoz ma'nosida qo'llanilishi ham bejizga emas. Yaponlar mijozlarni ham mehmon sifatida



qabul qilib, unga mehmonga ko'rsatiladigan hurmat ehtiromni ko'rsatishadi. Mantiqan olib qaraydigan bo'lsak, mehmon boshqa joyga, boshqa xonadonga tashrif buyuruvchi shaxsdir. Mijozni mehmonga tenglashtirar ekanmiz, bunda mijoz xizmat ko'rsatish obyektiga tashrif buyuradigan shaxs hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish binosi, obyekti esa mijoz tashrif buyuradigan joy, ya'ni mezbon tomon hisoblanadi. Yuqorida ham atib o'tilganidek, mehmonni yaponlar baxt-saodat ulashuvchi xudo deb sanashgan. Shu sababli ular xudo kabi mehmonni ulug'lashgan. Bu qadriyatlar yaponlarning qon-qoniga singib ketgan. Yaponiyaning xizmat ko'rsatish uslubi madaniyat darajasiga ko'tarilgan. Har qanday chetdan kelgan odam unda yaponlarga xos iltifot va ehtiromning guvohi bo'ladi. Marketing bo'yicha tadqiqotchi olim Muneyuki Joraku o'ziga yaponlarga xos bo'lgan xizmat ko'rsatish uslubini yaratishda mehmondo'stlikning muhimlik sabablarini shunday tushuntiradi: "Mijozga yaxshi xizmat ko'rsatish yaxshi mijozlarni jalb qiladi. 8:2 degan nazariya mavjud. Biznes muvaffaqiyatining 80 foizi 20 foiz mijozlar tufayli qo'lga kiritiladi. Xizmat ko'rsatish sifati mijozlarning qoniqishiga olib keladi va mijozlarning qanchalik tez-tez sizning xizmatangizdan foydalanishi biznesingiz kelajagiga ta'sir ko'rsatadi. Yaponiyada mijozlarning xizmatdan qoniqishi yapon mehmondo'stlik sifatining natijasidir." (Joraku, 2013). Demak, mijoz bilan muloqot yapon xizmat ko'rsatish madaniyatida eng yuqori o'rinda turadi. Mijoz bilan muomala biznesda muvaffaqiyat kaliti ekan, tilshunoslikda xizmat ko'rsatish sohasidagi mijoz bilan muloqot tilini tadqiq etish dolzarb masala deb aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. II tom. "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2006.
2. 哲口信夫 『哲口信夫全集 第一巻』、国文学の発生（第三稿）、まれびとの意識参照、中央公論新社、1975年
3. Палкин А.Д. Образ гостя в русской и японской лингвокультурах// Обсерватория культуры. 2016. Т. 1. № 2. С. 183—189.
4. 広辞苑 (2011) Kojien yapon tili izohli lug'ati (elektron versiyasi)
5. 精選版 日本語大辞典 (Shogakukan,2006) "Nihongo Daijiten" Yapon tili izohli lug'ati (elektron versiyasi)
6. uz.opentran.net



SHAROF BOSHBEKOV DRAMALARIDA UNDALMA – LINGVOPOETIK BIRLIK SIFATIDA

Imomova Ismigul Sirojiddin qizi
Samarqand Davlat universiteti
filologiya fakulteti 2-kurs magistranti
+998941899622
e-mail ismigulimomova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada undalmaning badiiy matnlarda, xususan, dramatik asarlarda qo'llanilish xususiyatlari, dramatik janrlardagi faolligi, individual nutqni, xalqchillik, tabiiylik, estetik ta'sirchanlikni hosil qilishdagi o'rni tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: undalma, dramatik tur, Sh.Boshbekov dramalari, so'zlashuv nutqi, monologik nutq, dialogik nutq, individuallik, emotsional-ekspressivlik.

Adabiy tur va janrlarda faol qo'llaniladigan sintaktik birlik undalmadir. "Undalma – so'zlovchining nutqi qaratilgan, boshqa bir shaxs yoki predmetni ifodalagan so'z yoki so'z birikmasidir [7.–B.59]. Bu sintaktik birlikning grammatik xususiyatlari o'zbek tilshunosligida o'rganilgan bo'lsa-da [1.–B.75-76; 2; 4.–B.85-87; 5; 6.–B.33-35], uning barcha vazifaviy uslublarda faolligi ko'pgina tadqiqotlarda turli jihatdan tadqiq qilinishida sabab bo'ladi. Shuningdek, ular badiiy matnda nafaqat murojaat birligi, balki milliy ruhni, o'zbekona muloqot yuzaga keltiruvchi, ijodkorning badiiy niyatini ochib berishga xizmat qiluvchi, o'zida turli ma'nolarni tashiydigan ta'sirchan vosita sifatida faol ishtirok etadi. Dramatik asarlarda qahramonlar nutqida undalma faol qo'llanilib, dramaturg turli badiiy maqsadlarda murojaat birliklaridan foydalanadi. Bizga ma'lumki, dramatik asarlarda muallif nutqi deyarli ishtirok etmaydi. Bu tur bevosita sahna uchun mo'ljallanganligi sababli qahramonlar bevosita muloqotga kirishadi va ayni muloqotda murojaat birligi sifatida qahramon nutqida undalma faol qo'llaniladi. Bizga ma'lumki, so'zlashuv nutqida xalqimiz o'zaro yaqinlikni ifodalash maqsadida, qavm-qarindoshlikni anglatuvchi birliklar: aka, opa, amaki, xola, tog'a, singlim, qizim, o'g'lim, onaxon, otaxon kabi so'zlardan murojaatda foydalanishadi. Bu holat Sharof Boshbekov dramalarida ham o'zaro murojaatda undalma sifatida qo'llanilgan: *E-e, oshnam, o'ynashmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan!* ("Charog'bonlar", 256); *Hay, hay, hay, tekkani yo'q, tekkani yo'q, xonangni qulflab qo'yibmiz, ona qizim!* ("Charog'bonlar", 257) Biroq dramaturg undalmadan nafaqat murojaat birligi sifatida, balki poetik individuallik hosil qilish uchun ham unumli foydalangan. Masalan, "Eshik qoqqan kim bo'ldi?" dramasida Pirmat ota insonlarga "imon topgurlar" deb, Olim –antropolog Pirmat otaga "otam" deb, boshqalarga "o'rtoqlar" deb murojaat qiladi. "Charog'bon" dramasida Samar tilidan Otajonga nisbatan "Otam", "Tikansiz tipratikanlar" dramasida Soli tilidan "janoblar", "shef", "xonim", "Eski shahar gavroshlari" asarida qorovul tilidan "jo'jaxo'rozlar", "toychoq" undalmalari ishlatiladiki, bu dramaturgning har bir til birligidan lingvopoetik maqsadda foydalanganini ko'rsatadi: *Ha, jo'jaxo'rozlar, nima talashyapsizlar? Oting nima, toychoq* ("Eski shahar gavroshlari", 79-80). *"Axir, quroldosh do'stlarni shunday ajoyib uchrashuvdan mahrum qilsangiz, pryamo do'zaxga tushasiz, otam* (131);

Bundan tashqari, Sh.Boshbekov qahramon xarakterini ochib berishda ham undalmadan foydalanadi. Masalan, quyidagi gapda undalma mensimaslik ma'nosida va qahramon holatini yoki xarakterini ifodalash uchun qo'l kelmoqda: *Sen, qizcha, qanaqa yashashni bilsang, uyimda ko'zlarini javdiratib o'tirgan to'rtta norasidaga tushuntir* ("Charog'bonlar", 253) Ushbu gapda iztirob, alam olovida qovrilayotgan Samar tilidan, jahl bilan, qizcha undalmasi qo'llangan bo'lsa, o'ziga xos kibr egasi bo'lgan, boyligi, ish-joyi yaxshiligi tufayli atrofida gilarni mensimaydigan, ular bilan hisoblashmaydigan qahramon sifatida gavdalanitirilgan Mohinisoning otasi – Salohiddinov tabiatini ochib berish uchun yigitcha, tirmizak kabi murojaat birliklari ishlatilgan: *Qani, yigitcha, shtabinglar qayerda, o'sha yoqqa boshla-chi* ("Charog'bonlar", 254); – *Ho', tirmizak, familiyangni aytib ket* ("Charog'bonlar", 255).

"Tikansiz tipratikanlar" dramasi qahramoni Soli nutqida o'ziga xos murojaat birliklari qo'llanilgan va, aynan, ushbu murojaat birliklari Soli xarakterini ochib bergan. Uning gaplaridagi kinoya, alamzadalik, jaydarilikni ifodalashda ijodkorga murojaat birliklari qo'l kelgan: *Marhamat, janoblar, har kim o'ziga ma'qul joyini tanlasin.* ("Tikansiz tipratikanlar", 44); *Otib yuborsanglar*



ham chekaman, azizlarim! ("Tikansiz tipratikanlar", 44) Uning chapani tabiati, yoshligi, hayotning achchiq haqiqatiga qarshi kurashish yo'lini topmasdan, hammadan nafratlanishini dramaturg uning gaplari orqali ifodalashga harakat qilgan: *Eshitdingmi, shef? "Jamoatchilik joyi", emish! Xonim, o'zlarini teatr foyesida tasavvur qilyaptilar. Chapak, janoblar!* ("Tikansiz tipratikanlar", 44) *E, xonim, dunyodan bexabarsiz-da. Hammayam bilgan narsasiga amal qilganda edi...Eh-ha, allaqachon yerda ish tugab, Yupiterda shanbalik qilib yurgan bo'lardik.* ("Tikansiz tipratikanlar", 67)

Bizga ma'lumki, so'zlashuv nutqida undalmaning gapdagi o'rni erkindir. Biroq manbalarda ta'kidlanishicha, undalma gap boshida kelganda, ko'pincha murojaat ma'nosini, gap o'rtasi va oxirida kelganda, subyektiv munosabatni bildiradi. Undalmaning bu xususiyatidan dramaturg ham unumli foydalangan: *I, singlim, qo'ysangiz-chi...O'zingiz nima qilasiz? Biz uyimizdamiz, sizga kerak-da bular, singlim* ("Charog'bonlar", 263)

Odatda undalma 2-shaxsga qaratilgan bo'ladi. Biroq monologik nutqda undalma 1-shaxsga, ya'ni so'zlovchining o'ziga qaratilgan bo'lishi mumkin. Sahna uchun mo'ljallangan asarlarda monologik nutq faolligi bois, 1-shaxsga qaratilgan undalmalar ko'p uchraydi. Bu holat Sh.Boshbekov dramalarida ham kuzatiladi. Masalan, "Charog'bonlar" dramasi qahramoni Samar tilidan qo'llanilgan bunday murojaatlar nutq egasini o'ziga xos, xalqona, sodda nutqini shakllantirishga xizmat qilgan: *Voy ahmog'ye!.. Holing shu ekan, burningni tiqib nima qilasan, yumronqoziqqa o'xshab iningda o'tirsang o'lasanmi! Ha, so'qir, oshga pashsha bo'lmay, har narsa bo'lgur* ("Charog'bonlar", 261). Xuddi shunday o'ziga murojaat Tesha nutqida ham uchraydi. Teshani kaltaklab ketishganida u o'ziga-o'zi gapiradi: *Endi nima qildik, Mulla Teshavoy? Aqlli odam bunaqa paytda opasiga ko'rinmaydi* ("Tushov uzgan tulporlar", 231).

Xullas, Sh.Boshbekov dramalarida undalma nafaqat murojaat birligi sifatida, balki qahramon xarakterini ochib berish, individual nutq hosil qilish, milliy mentalitetni ifodalash, emotsional-ekspressivlikni kuchaytirish kabi lingvopoetik maqsadlarda qo'llaniladi.

Adabiyotlar:

1. Акбарова З. Мурожаат шаклининг тасниф асослари // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2006. –№3. –Б.74-76.
2. Аҳмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2008.
3. Бошбеков Ш. Эшик қоққан ким бўлди? Пьесалар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
4. Расулов Р., Аҳмедова Н. Ундалмами ёки мурожаат бирлиги? // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2007. – №2. –Б.85-87.
5. Сайфуллаев А.Р. Ҳозирги ўзбек тилида ундалма. –Тошкент: Фан, 1968.
6. Юсупова О. Ундалма–миллий менталитетни ифодаловчи бирлик сифатида // Буюк ипак йўлида умуминсоний ва миллий кадриятлар: тил, таълим ва маданият. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2016. –Б. 33-35.
7. Ўзбек тили грамматикаси. II том.-Т.: Фан, 1976. Б.59.



O'ZBEK VA XITOIY TILLARIDA OT SO'Z TURKUMINING SO'Z YASALISHI XUSUSIYATLARI

Jumamurodova Mavluda

O'zDJTU Filologiya fakulteti

Xitoy tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası

322-guruh talabasi

@mavluda_jumamurodova@mail.ru

Ilmiy maslahatchi: G.M. Ro'zumova

Annotatsiya. Mazkur maqolada ot so'z turkumi haqida qisqacha ma'lumot berilgan va aynan o'zbek hamda xitoy tillaridagi ot so'z turkumining so'z yasalişhi xususiyatlari keng tahlil qilingan.

Tayanch so'z va birikmalar: ot so'z turkumi, morfologik, sintaktik, asos, qo'shimcha, affiksatsiya, kompozitsiya, prefiksatsiya, suffiksatsiya, prefiks, suffiks.

Xitoy tili dunyo tillari qatoridan o'rin olgan va borgan sari o'z nufuzini mustahkamlab borayotgan tillardan biri hisoblanadi. Xitoy tili grammatikasi ko'p qirrali va juda keng masalalarni o'z ichiga olgani sababli, ushbu maqolada ot so'z turkumida so'z yasalişhiga to'xtalamiz. O'zbek va Xitoy tillarida ot so'z turkumining so'z yasalişhing xususiyatlarini o'rganish va ikkala tildagi qiyosini tahlil qilish mazkur maqolaning obyektidir.

O'zbek tilida ot so'z turkumi: Shaxs, narsa, hodisa ma'nolarini, shuningdek, joy nomlarini bildirib, kim?, nima?, qayer? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarga ot so'z turkumi deyiladi. Masalan, *O'qituvchi(kim?)*, *gul(nima?)*, *shahar(qayer?)*¹

Xitoy tilida ot so'z turkumi: Xitoy tilida ot- (名词 – ming ci) deb ataladi. Ot so'z turkumi xitoy tilida ham xuddi o'zbek tilidagidek shaxs, narsa, hodisa, joy nomlarini ifodalab keladi. Masalan: 医生 *yisheng shifokor*(*shai? kim?*), 桌子 *zhuozi stol*(*shenme? nima?*), 北京 *Beijing Pekin*(*nali? qayer?*)²

O'zbek tilida otlar 2 usul bilan yasaladi: 1. Morfologik - qo'shimcha qo'shish orqali yasaladi. Masalan: oshpaz, bolalik, gulzor. 2. Sintaktik - so'z bilan so'z qo'shilişhi asosida yasaladi. Masalan: oshqovoq, qorbo'ron, atirgul.

Xitoy tilida ot so'z turkumida so'z yasalişhi uchta asosiy so'z yasalişh – so'zlar qo'shilişhi, yarim affiksatsiya va affiksatsiya usullari xitoy tilida otlar sinfiga tegishli bo'lgan leksik birliklarni hosil qiladi.

So'zlarni qo'shish (o'zaklarni qo'shish). Murakkab so'zlar asosan kommulyativ va atributiv modellar, juda kam holatlarda – ob'ektili va predikativ modellar bo'yicha yasaladi. Shunday qilib, otlar murakkab so'zlarning har xil tarkibiy turlarga mansub bo'ladi.

Yarim affiksatsiya (o'zining ikki turida – yarim prefiksatsiya va yarim suffiksatsiya) otlarning so'z yasalişh tizimida juda keng tarqalgan.

Yarim suffikslar: 超 *chao*, 泛 *fan*, 微 *wei*, 亚 *ya* va 反 *fan* hozirgi zamon xitoy tilida asosan atama (termin)lar sohasida so'z yasalişhiga xizmat qiladi. Old qo'shimcha morfemalar orqali yasalgan leksik birliklar soni uncha ko'p emas.³

Prefikslar (ular atigi ikkita: 老 *lao* va 阿 *a*) jonli predmetlarni ifodalovchi otlar kategorisining juda kam so'zlarini hosil qiladi.

老 *laoshi* 师 o'qituvchi, 老乡 *laoxiang* vatandosh, 老虎 *laohu* yo'lbars (tigr), 老鼠 *laoshu* kalamush, 阿母 *amu* ona, 阿妹 *amei* opa (opacha), 阿哥 *age* uka (ini).

Otlar yasovchi suffiksalar morfemalarning soni ko'p emas. Ularning ba'zilari (子 *zi* va 儿 *er*) katta unum (hosil)dorlik bilan ajralib turadi, 胖子 *pangzi* *semiz odam*, 脖子 *bozi* bo'yin, 肚子 *duzi* oshqozon, 狮子 *zhizi* sher, 棍儿 *gunr* cho'pcha, Tayoqcha, 门口儿 *menkour* pod'ezd, 画儿 *huar* rasm, tasvir.

Kontraksiya so'z yasalişh usullaridan biri bo'lib, xitoy tilida muhim rol bajaradi. To'rt qismli leksik birliklar misolida morfemalik kontraksiyani keltiramiz. Odatda kontraksiya natijasida ikkita (ba'zan – uchta) morfemadan iborat murakkab qisqartirilgan so'zlar hosil bo'ladi.

¹ A. Anorbekova, Sh. Mirzayeva «Hozirgi o'zbek adabiy tili» - Noshir, 2012.

² В.М. Солсев «Очерки по современному китайскому языку» – Москва, 1957.

³ S. Hashimov, S. Nosirova Xitoy tili grammatikasi-T.2011.



土地改革 tudigaige yer – dala – o'zgartirmoq – qayta shakllamoq >: 土改 tugai yer islohoti;
无线电台 wuxiandiantai yo'q – sim – elektrquvvat – stansiya > radiostansiya; 直升飞机
zhishengfeiji to'g'ri – ko'tarilmoq – uchmoq – apparat > vertolyot.¹

Demak, ot so'z turkumi o'zbek tilida ham xitoy tilida ham shaxs, narsa va joy nomlarini ifodalab bir xil savolga javob bo'lar ekan. Bundan tashqari har ikki tilning o'ziga xos xususiyatlari va albatta bir-biridan farqli jihatlari mavjud ekan. Mazkur maqolada biz aynan ot so'z turkumida so'z yasalishi orqali har ikki tilni qiyoslab tahlil qildik. O'zbek tilida otlar 2 ta usul orqali yasalsa, Xitoy tilida bo'lsa otlar biroz ko'proq usullar orqali yasalar ekan. Tillarni bir-biriga bog'lab va farqlab o'rganish - til o'rganish savodxonligini yanayam oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. В.М. Солсев «Очерки по современному китайскому языку» – Москва, 1957.
2. A.Anorbekova, Sh.Mirzayeva «Hozirgi o'zbek adabiy tili» - Noshir, 2012.
3. Hashimova S., Nosirova S. Xitoy tili grammatikasi-T.2011.
4. Nurmuxamedova M.A. O'rganilayotgan til filologiyasiga kirish (xitoy tili) fanidan o'quv-uslubiy majmua –T: O'zDJTU. 2019.

¹ M.A.Nurmuxamedova O'rganilayotgan til filologiyasiga kirish (xitoy tili) fanidan o'quv-uslubiy majmua –T: O'zDJTU. 2019.



ТА'ЛИМ ЖАРАЙОНИДА INNOVATION PEDTEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA AMALDA QO'LLASH

Nuriddinova Nafisa Muxiddin qizi

Sam DCHTI akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ta'lim jarayonida sifat o'zgarishlarini yuzaga keltirish, yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasi ta'limga yangicha, zamonaviy yondashuvlarning ham kirib kelishiga sabab bo'ldi. Hozirgi kunda o'qituvchining har tomonlama qobiliyatga ega ekanligi, mashg'ulotlarni tashkil etishda yangi texnologiyalar, tajribalarga tayanishi zamon talabidir. Bu jarayonda ta'lim oluvchining faqat tinglovchi bo'lmay, balki jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishi uning fikrlash qobiliyatini o'stirib, mustaqil fikrini ayta olish darajasiga olib chiqadi. Ushbu maqolada keltirilgan tavsiyalar o'quv jarayoniga qo'llanishi mumkin va talabalarni ta'lim jarayonining markaziy sub'ekti sifatida faollashtirishga, darsning maqsadidan kelib chiqqan holda kafolatlangan natijaga olib kelishga hamda ta'lim sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: interfaol texnologiya, samaradorlik, TTV, YTV, O'UM, organayzer va hk.

Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish, erkin fikrli, ijodkor, o'z sohasining ustasi bo'la oladigan, raqobatbardosh kadrlarni ishlab chiqarishga tayyorlab berish oliy ta'lim muassasalari oldidagi eng muhim vazifalardanidir.

O'qituvchi ta'lim jarayonida interfaol ta'lim yordamida o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, interfaol metodlarni qo'llash orqali o'qituvchi o'quvchilarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Til va adabiyot ta'limiga xorijiy tajribalar va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish bugungi ta'limning dolzarb masalasi sifatida kun tartibida turibdi. Ayniqsa, til ta'limida interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, amalda qo'llash masalasi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda fan, texnika va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi natijasida o'quv-tarbiya jarayonida interfaol uslublardan foydalanib ta'limning samaradorligiga erishishga bo'lgan qiziqish kundan kunga kuchayib bormoqda. Interfaol ta'lim, interfaol uslublar tizimi bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'zini qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Taniqli pedagog N. P. Kapustin ta'kidlaganidek, dars samaradorligi deganda biz uning har bir o'quvchining intellektual ravnaqi uchun foydaliligini tushunamiz.

Bugungi kunda barcha fanlarni o'qitishdagi kabi ona tili o'qitishda ham ilg'or xorijiy tajribalardan, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. "Ona tili va adabiyot" fanini o'qitishda qanday pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur, bugungi kunda ta'lim sohasiga shiddat bilan kirib kelgan va barcha pedagoglar tomonidan samarali deb e'tirof etilayotgan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan qaysilarini qo'llasak maqsadga muvofiq bo'ladi qabilidagi savollar har bir tilshunos-pedagogni qiziqtirishi tabiiy hol, albatta. Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – bu mashg'ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda.

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subyektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi. Interfaol o'qitish "ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi" o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi – o'quvchi – o'quvchilar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.



Til va adabiyot ta'limiga xorijiy tajribalar va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish bugungi ta'limning dolzarb masalasi sifatida kun tartibida turibdi. Ayniqsa, til ta'limida interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, amalda qo'llash masalasi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Ta'lim vositalari o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi.

Ta'limning texnik vositalari (TTV) - o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi; o'quvchilarning o'quv materialini tushunishlari va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi. Yordamchi ta'lim vositalari (YTV) – grafiklar, chizmalar, namunalar va boshqalar. O'quv - uslubiy materiallar (O'UM) - o'quv materiallar, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular o'quvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradi.

Grafikli organayzerlar (tashkil etuvchi) – fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasi hisoblanadi. Grafikli organayzerlar tahsil oluvchilarda mantiqiy fikrlash, shaxsiy xatolar ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Grafik organayzerlar o'quvchilarni ijodga, izlanishga chorlaydi. Tahsil oluvchilar ta'lim-tarbiya jarayonining faol ishtirokchilariga aylanadilar, o'zlari mustaqil bilim oladilar, kollektiv ravishda ta'limiy vazifalarni hal etadilar, o'z-o'zini baholaydilar, ta'lim texnologiyalarini tuzishda ishtirok etadilar.

Grafik organayzerlarga “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va boshqalar kiradi. Grafik organayzerlardan ta'lim jarayonida turli maqsadlarda foydalaniladi. Ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo'lib chiqish, o'rganilayotgan tushunchalar (voqea va hodisalar, mavzular) o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liqlikni o'rnatishning usul va vositalariga “Klaster”, “Toifalash jadvali”, “Insert”, “BBB jadvali” kabi grafik organayzerlar kiradi. “T-jadvali”, “Venn diagrammasi” ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash maqsadida qo'llaniladigan usul va vositalardir.

Xulosa qilib aytganda, shaxsga yo'nalgan ta'lim jarayonining asosiy tavsifi uning boshqa maqsadga yo'nalganligi va ishtirokchilarga boshqacha yondashuvni ifoda etishidir: o'quvchilarni o'z hayotiy faoliyat usullari, o'z individualligini talabga javob beradigan tarzda amalga oshiruvchi o'quv jarayonining haqiqiy subyektiga, o'qituvchini esa o'quvchi faoliyatining tashkilotchisi, boshqaruvchisi, o'quvchilar va madaniyat o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in, o'quvchini madaniyatga olib kirish va undagi o'z o'rmini belgilab olishini ta'minlovchisiga aylantirishdir. Bugungi kunda o'quvchi bilimni obyektiv baholash, unda aqliy operatsiyalarni bajarish layoqatini yanada rivojlantirish maqsadida nostandart testlardan foydalanish ham zamonaviy texnologiyalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jumladan, “O'zbek tilining tovush tizimi” mavzusini o'qitish jarayonida o'quvchilar bilimni nazorat qilishda reproduktiv, produktiv darajadagi testlar, qisman izlanishli testlar, kreativ testlar kabi darajali nazorat testlaridan foydalanishni tavsiya etamiz. O'ylaymizki, bu xildagi testlar bilim berish samaradorligini yanada yuksaltiradi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. I.A.Karimov. Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. -T.: «O'zbekiston», 2009.
2. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». -T.: 1997.27-bet.
3. Begimqulov U. Pedagogik ta'limda zamonaviy texnologiyalar. “Pedagogik ta'lim” jurnali. 2005, 6-son, 15-17-betlar.
4. Elektron ta'lim resurslari:
5. Golish L.V., Fayzullaev D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi.- T.: Iqtisodiyot, 2011. -206 b.
6. Begimqulov U. Pedagogik ta'limda zamonaviy texnologiyalar. “Pedagogik ta'lim” jurnali. 2005, 6-son, 15-17-betlar.
7. Golish L.V., Fayzullaev D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi.- T.: Iqtisodiyot, 2011. -206 b.
8. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish. Toshkent. Fan, 2006.
9. Yo'ldolshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: “O'qituvchi”, 2004 y.



ABDULLA AVLONIY IJODINING O'ZBEK PEDAGOGIKASIDAGI AHAMIYATI

Samandarova Malohat Omondavlat qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti,
fizika matematika fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'rifat maydonida o'z o'rniga ega milliy madaniyatimiz rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma Abdulla Avloniy ijodi serqirra mahsullarining o'zbek pedagogikasidagi ahamiyati haqida mulohaza yuritiladi. Avloniy she'riyatining ta'limdagi tarbiya jihatlari pedagogik tahlilga olinadi.

Kalit so'zlar: maktab darsliklari, gazeta, nashriyot, "axloq ulamosi", siyosatparvar alloma, teatr san'ati, pedagogika

Milliy adabiy merosimizni har sohada boyitishga o'zining ulkan hissasini qo'shgan Abdulla Avloniy ijodi doimo o'zgacha va serqirra ijod namunalari sifatida baholangan. Uning adabiyotda, teatr san'atida, maktab ta'limida, nashriyotda va tarbiya pedagogikasida olib borgan ko'plab ilmiy-ijodiy izlanishlari bu soha vakillarining va yosh davr ijodkorlarining dolzarb masalalarni o'rganishlari uchun asosiy dasturulamali bo'lib xizmat qiladi. Abdulla Avloniy ijodining asosida ta'lim – tarbiya, vatanni ulug'lash, farzandga beriladigan pand-nasihatlar, zamonga xoslangan muoammolar she'riy vaznlarda o'z aksini topadi. Uning eng ulkan xizmatlaridan biri bu dastlabki maktab darsliklarining muallifi ekanligidir. Avloniyning pedagogik qarashlari bugungi kun o'zbek milliy maktablari faoliyatida ham asosiy o'rin egallamoqda. Uning merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Avloniy ijodi nafaqat pedagogik maslahatlar, balki o'quvchilar psixologiyasi uchun ham qo'llanmadir. Jumladan, uning ushbu qarashlariga e'tibor beraylik. U insonga xos xulqni ikkiga, ya'ni yaxshi va yomonga ajratadi. "Yaxshi xulqlar" deb nomlangan birinchi qismida u 31 fazilat, "Yomon xulqlar" deb atalgan ikkinchi qismida esa, 20 illatga ta'rif beradi. Avloniy "axloq ulamosi"ning qarashlari asosida insonlarning xulqlarini yaxshi va yomon xulqlarga ajratadi, bunga ularning nafs tarbiyasini asos qilib oladi. U yaxshi xulqlarga shijoat, intizom, vijdon, vatanni suymak kabi fazilatlarini kiritib, g'azab, jaholat, safohat kabi illatlarni yomon xulqning belgilari deb biladi. Ulug' allomaning tarbiyani ta'limdan, ta'limni esa tarbiyadan ajratmagani, ularni bir butun deb baholagani, xalq ma'naviyatini yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyalarini ilgari surgan she'rlari o'zbek adabiyotining bebaho timsollaridir. Jumladan, uning "Vatan" she'riga e'tibor qarataylik

Sening isming bu dunyoda muqaddasur,
Har kim sening qadring bilmas –aqli pastdur.
Sening tuyg'ung yuraklarga savdo solur,
Sening darding boshqa dardni tortib olur...

Uning ta'riflaridagi soddadillik, oshkorlik, mehr va haqiqat tug'yonlari har doim baralla kuylangan. Shoir ijodiyotidagi ma'rifatga, adolatga bo'lgan chaqiruvlar uning asarlari qimmatini yana ham oshirgan. Ayniqsa, mustaqillikka erishilganidan so'ng, har sohada yangiliklar, zamon talablariga xos va mos bo'lgan standartlar ishlab chiqila boshlangan. Kuzatilayotgan o'zgarishlar samarasi ta'lim –pedagogika sohasini ham chetlab o'tgani yo'q. Maktabgacha, o'rta va oliy ta'lim yo'nalishlari uchun qaytadan yangi dasturlar ishlab chiqila boshlandi. Bunday o'zgarishlar uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi bir manba Avloniy hayotidagi realliklar bo'ldi desak adashaymiz. Uning she'riyati asosida ma'rifatchilik va ijtimoiy mavzular markaziy o'rinni egallaydi. Shoir ilm-fanning fazilatlarini zavq bilan kuylaydi. "Maktab", "maorif", "ilm", "fan" kabi tushunchalar shoir she'rlarida ezgulikning betimsol ramzi, obrazi darajasiga ko'tariladi, "jaholat" va "nodonlik" esa zulmat va yovuzlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Abdulla Avloniyning boshlang'ich maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Muxtasar tarixi anbiyo va Tarixi Islom" asari ham mavjud. Bu risolada Odam Alayhissalomdan to Muhammad Alayhissalomgacha o'tgan payg'ambarlarimizning qissalari aks ettirilgan. Avloniy ijodida bunday asarlarning uchrashi ham uning o'z yurtidagi ma'rifatni, ozodlikni, ilmni qay darajada yuksak xohlaganining yaqqol dalilidir. Hozirda bunday diniy yo'nalishlar keng va tushunarli o'rgatiladigan maxsus madrasalar va oliy ta'lim bilim yurtlari o'z faoliyatini olib bormoqda. Abdulla Avloniy ham o'z davrida asarlar yozish bilan bir



qatorda maktablar ochish, o'zbek xotin-qizlarini o'qitish, xalqni savodxon qilish, o'qituvchi va ziyoli kadrlar tayyorlash bilan shug'ullangan. U 1924-1929-yillarda Toshkent harbiy maktabida o'qituvchi, 1925-1934-yillarda O'rta Osiyo Kommunistik universiteti, O'rta Osiyo Qishloq xo'jaligi maktabida, O'rta Osiyo Davlat universitetida dars beradi. Pedagogika fakultetining til va adabiyot kafedrasida professori va mudiri bo'lib ishlagan. Uning maorif tizimidagi faoliyati asarlarining ham haqiqiy pedagogik mahoratini oshirgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Abdulla Avloniyning quyidagi hikmatini keltiraylik: *"Tarbiya biz uchun yo hayot –yo mamot, yo najot –yo halokat, yo saodat –yo falokat masalasidir"*. Bu fikrlar nafaqat pedagoglar zimmasiga, balki kelajak avlod tarbiyasida ishtirok etadigan har bitta inson uchun asosiy shior demakdir. Uning maktablar uchun yozgan "Birinchii muallim", "Ikkinchi muallim", "Tarix", "Turkiy Guliston yoxud axloq" singari asarlari o'z zamonasining haqiqiy yangiligi edi. Avloniy ijodini bezagan bu kitoblarda axloq-odobga, halollik va poklikka oid turli xil she'rlar, hikoya, masal va ertaklar jamlangan. Jumladan, "Ikkinchi muallim" kitobi quyidagi "Maktab" she'ri bilan boshlanadi.

Maktab dur-u gavhar sochar,
Maktab sizga Jannat ochar,
Maktab jaholatdan qochar,
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon !

Maktab sizni inson qilur,
Maktab hayo ehson qilur,
Maktab g'ami vayron qilur,
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!

Bu she'rning ta'rifi, tavsifi shuki shoir o'z qalami orqali maktabning hayotda qanday muhim ahamiyat kasb etishini, unda o'qigan insonning jaholatdan yiroq bo'lishi, yaxshi inson bo'lib ulg'ayishi va juda ko'p yutuqlarga erishishi chiroyli qilib ta'riflanadi.

Bizning shunday ma'rifatparvar allomamiz borligi qalbimizga faxr va g'urur tuyg'ularini soladi. Biz bo'lajak pedagog sifatida Abdulla Avloniy izidan borishimiz, uning har bir so'zlari, asarlari va darsliklarini yaxshilab o'qib o'rganishimiz zarur. Shunday ekan, ulug' bobokalonimizning yodlari doimo qalbimizdadir!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Qosimov, Sh.Rizayev. "Abdulla Avloniy" – T.2016
2. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T.: "Ma'naviyat", 2004.
3. A. Zunnunov. Pedagogika tarixi. – T.: "Sharq", 2004.
Kalit so'zlari: tashbih, mushabbihun bih, tabiat tasviri, mumtoz adabiyot.

Tashbih san'ati dunyo xalqlari, mumtoz va yangi adabiyotning poetikasida eng ko'p murojaat qilingan — badiiy san'atlardan hisoblanadi.

Tashbih — Sharq adabiyotida keng tarqalgan san'atlardan biri bo'lib, o'xshatish ma'nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy (real) yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'atidir. Tashbih san'ati tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani o'quvchi ko'z o'ngida aniqroq, jozibalibroq gavdalanitirishga xizmat qilib, asar timsollari ma'naviy qiyofasini yorqinroq ochish, binobarin, shoir g'oyasini o'quvchi ongiga to'laroq yetkazishga imkon beradi.

Tashbih san'ati quyidagi to'rt juzv asosida qo'llaniladi:

1. **Mushabbih** — nima o'xshatilgan bo'lsa, o'sha narsa yoki tushuncha.
2. **Mushabbihun bih** — nimaga o'xshatilgan bo'lsa, o'sha narsa yoki tushuncha.
3. **Vajxi shabix** — mushabbih bilan mushabbihun bih orasidagi munosabat.
4. **Vositai tashbih** — o'xshatish belgisi.

Masalan: "*Sevgilim go'zallikda Shirin kabidir*" deb tasvirlansa, "sevgilim" so'zi mushabbih, "Shirin" — mushabbihun bih, "go'zallikda" — vajxi shabix, "kabidir" — vositai tashbihdir.

Muqimiyni:

Ko'zlaring cho'lpona o'xshar, qoralig'da sochlaring

Orazing oydin munavvar, osmondir qoshlaring

baytidagi ko'zlaring cho'lpona o'xshar degan tasvirda "*ko'zlaring*" — mushabbih, "*cho'lpona*" — mushabbihun bih, "*o'xshar*" so'zi esa vositai tashbih hisoblanadi.

Tashbih san'ati X-XII asrlarda mumtoz shoirlar ijodida, asosan, tabiat manzaralarini tasvirlash jarayonida va boshqa tabiiy hodisalarni tasvirlashda ishlatilgan. Mazkur davr shoirlari ijodiyotida tabiat manzaralarini tasvirlash va tavsiflash katta ahamiyatga molik bo'lib, badiiy san'at namunalaridan, xususan, tashbih san'ati orqali tabiatning manzaralari: bog' va gulzorlarning ko'rki-chiroyi haqida ko'plab obraz va tasvirlarni yaratishgan.

Tabiatni sevis, uning har bir fasliga alohida e'tibor — bu hayotga muhabbatdan tug'iladi. Bahor — tabiatning uyg'onishi, butun borliqqa liboslar kiydiradi, dala-bog'lar qushlar qiy-chuvoga to'ladi, quyosh boshqacha fayz, o'zgacha yorug'likda nur socha boshlaydi. Qish bo'yi nafasi ichiga tushgan ariq va jilg'alardagi suvlar ko'klamda go'yo qo'shiq kuylab oqishadi. Qirlarda ochilib-sochilib yotgan lolalar ufqlar bilan rang talashadi.

Alisher Navoiyning Farhod va Shirin dostonida ham tabiat tasvirini ifodalashda tashbih she'riy san'ati hamda uning unsurlaridan mohirona foydalangan.

Yoz fasli tasviriga bag'ishlangan ayrim baytlar ham fikrimizni kengroq asoslashga yordam beradi.

Berib yafrog' nishon to'ti paridin,

Shajar tovusi jannat paykaridin.

Anga dog'i qovursun obkashdin,

Munga ham toj shoxi xizrvashdin.

Shajar gar bo'lmasa tovus bog'i,

Nedin tovusdek bo'ldi ayog'i?

Shoir daraxtni *tovusga* (mushabbihun bih) yaproqlarini esa *to'tining patiga* (mushabbihun bih) o'xshatadi, ba'zi yaproqlar qushning qovursun degan mayday patchalari obkash — eng ingichka tomirlaridan suv shimsa, boshqasi Xizrga o'xshash yashil rangni shoxlik tojini boshi uzra qo'yanligini ta'riflaydi. Bu yerda "*tovus*" "*to'tining pati*" mushabbihun bih unsuri hisoblanadi.

Bundan tashqari tabiat tasvirlariga bag'ishlangan asarlarni ko'plab mumtoz adabiyotimiz shoirlarining ijodida ko'rishimiz mumkin.

Xususan mumtoz adabiyotimiz tarixida Muhammad Rizo Ogahiy ijodi o'zining salmog'i va



teran mazmuni bilan muhim o'rin tutadi. Shoir lirikasining hayotbaxsh kuchi tabiat tasviriga bag'ishlangan she'rlarida yorqin kuzatiladi.

*Dahridin mahv ayladi gardi kuduratni bo'lub,
Abri nayson diydai ushshoq yanglig' qatra bor
Har taraf suvlar ravon o'ldi azubatlar bila,
Dilrabolarining ziloli la'li yanglig' xushguvor.*

Yuqoridagi baytlarda "azubatlar" shirinlik, totlilik va "xushguvor" so'zi lazzatli, xushta'm kabi ma'nolarni beradi. Ammo bu o'rinda uning yoqimlilik, hayotbaxshlik sifatlariga ko'proq e'tibor qaratilgan. Tabiatning yashillikka va gullarga burkanishini ham shoir go'zal qizlarga (mushabbihun bih) qiyoslaydi va o'xshatishning yangicha namunalari qo'llaydi.

Mumtoz adabiyotimiz namoyondalari tabiat go'zalliklarini chuqur his etgan, insonlarni undan bahramand bo'lishga chorlagan. Shoirilar tabiat ko'rkamliliklarini barcha turdagi asarlarda, dilbar navolarda tarannum etganlar. Shoirilar tabiatni tasvirlaganda, ko'proq jamiyat bilan bog'liq poetik obrazlardan foydalanadilar, ya'ni, sarv qomatga, sunbul sochga, sabza hadga nisbat beriladi. Bu tabiat tasviriga bag'ishlangan asarlarning o'ziga xosligi hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, tashbih she'riy san'ati tabiatni tasvirlashdagi muhim elementlaridan biri hisoblanib, shoirilar undan o'z g'oyalarini ifodalashda samarali foydalanadilar. Ayniqsa mumtoz she'riyatda tabiat unsurlarida mushabbihun bih yuqori planda turuvchi element hisoblanadi, har bir tabiat unsurlari mushabbihun bih sifatida talqin etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: 2018
2. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. –T.: 2006
3. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – T.: 1998



О‘QITUVCHI NUTQNING KOMMUNIKATIV SIFATLARI

Muxtorova Vazifaxon Mamatxonovna

Namangan tumani 6- maktab

ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

e-mail:muxtorova@mail.ru

Annotatsiya: maqolada nutq va uning tarixi, nutqning kommunikativ sifatlati, nutqni rivojlantirish yuzasidan amalga oshirish lozim bo‘lgan vazifalar xususida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: nutq tarixi, so‘zlovchi, tinglovchi, ta’sirchanlik, tozalik, mantiqiylik

Nutq so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko‘rinishi bo‘lib, u faqatgina tilga bog‘liq sanalmasdan, ham ruhiy, ham estetik hodisa hisoblanadi. Shuning uchun ham unga namunaviy nutq sifatida baho berilganda tinglovchi va kitobxonga ko‘zda tutilgan maqsadning, aytilmoqchi bo‘lgan muddaoning to‘liq borib yetishi, ularga ma’lum tahsir o‘tkazishi nazarda tutiladi hamda bu vazifalarning amalga oshirishda nutq oldiga ayrim talablar qo‘yiladi. Bu talabalar grammatik jihatdan nutqning to‘g‘ri bo‘lishini, so‘zlar ko‘zlangan ma’noni aniq aks ettirishini, chiroyli, yorqin va ta’sirchan bo‘lishini taqozo qiladiki, ular nutqning asosiy xususiyatlari sifatida qaratiladi. Qadimgi davrlarda ham nutqning bu jihatlari alohida e’tibor berib kelishgan. Masalan, rimliklar namunaviy nutqning sifatlarini o‘zida aks ettiruvchi qoidalar ishlab chiqishgan. Mashhur notiq Sitseron fikricha, aniqlik va tozalik nutq uchun shunchalik zarurki, ularni asoslab o‘tirishning ham hojati yo‘q. Ammo notiq tinglovchilarni o‘ziga jalb qilishi uchun bu sifatlar hali yetarli emas. Buning uchun nutq jozibador bo‘lishi ham kerak. Agar nutq ma’lum vaziyat va shart-sharoitlarda amalga oshirilishi nazarga olinsa, bunda joy, vaqt, mavzu va muloqot jarayonining maqsadi kabi omillar katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Aytilganlarni qisqacha umumlashtiradigan bo‘lsak, nutqning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni belgilash lozim bo‘ladi: to‘g‘rilik, aniqlik, mantiqiylik, ta’sirchanlik, timsollilik, tushunarlik va maqsadga muvofiqlik.

Nutqning asosiy xususiyatlariga to‘g‘rilik, aniqlik, mantiqiylik, tozalik, ta’sirchanlik kiradi. Bundan tashqari nutqning timsollilik, tushunarlik, maqsadga muvofiqlik kabi xususiyatlari ham mavjud.

Nutqning to‘g‘riligi. Nutqning to‘g‘ri bo‘lishi uning bosh kommunikativ xususiyati hisoblanadi. Nutqning to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi tomonlarning – so‘zlovchi va tinglovchining, yozuvchi va o‘quvchining bir-birlarini tez va oson tushunishlarini ta’minlaydi. Agar nutq to‘g‘ri bo‘lmasa, u aniq ham, maqsadga muvofiq ham, mantiqiy ham bo‘lmaydi.

Nutqning aniqligi. Aniqlik ham nutqning asosiy kommunikativ sifatlaridan bi-ridir. Agar to‘g‘rilik nutqning yuzaga kelishida faqat til omili zaruriy belgisi sifatida qaralsa, nutqning aniqligi deyilganda uning shakllanishiga xizmat qiladigan, tildan tashqarida bo‘lgan omillarni ham nazarda tutish lozim bo‘ladi. Bunda dastlab til va tafakkur munosabati turadi.

Nutqning mantiqiyliigi. Nutqning mantiqiyliigi uning asosiy sifatlati – to‘g‘rilik va aniqlik bilan chambarchas bog‘langandir. Chunki grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifoda etish uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan leksik birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o‘quvchiga ifodalanayotgan fikrning to‘liq borib etmas-ligiga, ba’zan umuman anglashilmasligiga sabab bo‘lishi mumkin.

Nutqning tozaligi. Nutqning tozaligi deganda unda til elementlarining ishlatilishida adabiy til me’yorlariga amal qilish-qilmaslik tushuniladi. Yaxshi, namunaviy nutq hozirgi o‘zbek adabiy tiliga, uning talablariga mos holda shakllangan bo‘lishi, turli g‘ayriadabiy va g‘ayriaxloqiy til elementlaridan holi bo‘lishi kerak.

Nutqning ta’sirchanligi. Nutqning ijro etilishida unga ma’lum bir voqea-hodisa haqida ma’lumot berishdan tashqari yana bir maqsad – tinglovchi ongiga va ruhiyatiga tahsir etish vazifa qilib qo‘yiladi. Shuning uchun ham ta’sirchanlik nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi hamda to‘g‘rilik va aniqlik ham, mantiqiylik va tozalik ham suhbatdoshga, tinglovchiga yoki o‘quvchiga ta’sir etishiga qaratilgan bo‘ladi.

Nutq madaniyati jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma’naviy kamolotining muhim belgisidir. Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb e’lon qilingan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari har qachongidan ham dolzarblik kasb etadi.



Respublikamizning «Davlat tili» haqidagi qonuni, «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va boshqa hujjatlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, til masalalariga alohida ehtibor berilgan. Har qanday kadr, eng avvalo, o'z ona tilining chinakam sohibi bolmogi lozim. Nutq madaniyati hozirgi davr tilshunoslik fanining dolzarb muammolaridan biridir. Bu muammoni hal etish umummadaniyatimiz taraqqiyoti, shuningdek, oliy maktablarda, o'rta maxsus oquv yurtlarida, o'rta maktablar va umuman dars otish jarayonini yaxshilash bilan ham bog'liq. Chunki notiqlik san'ati sirlarini o'rganish, o'z fikrini bayon qilayotgan har bir til vositasini kerakli va lozim bo'lgan o'rinda qo'llash, mantiqan barcha sohada xizmat qiluvchi har bir mutaxassis uchun, umuman, har qanday madaniyatli kishi uchun xayotiy zarurat deb hisoblanishi kerak. O'zbek adabiy tili va uning normalarini ilmiy o'rganish ham o'zbek nutqi madaniyati sohasi uchun nihoyatda muhimdir. Adabiy tilning rivojlanish qonuniyatlarini, adabiy til me'yorlarining umumiy holatini, undagi turg'un va noturg'un hodisalarni chuqurroq tekshirmay turib adabiy tilning nutq madaniyati haqida gapirish aslo mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Begmatov E, Tojiev Y. Nutq madaniyati va stilistika asoslari. Toshkent, 1987.
2. Begmatov E. Nutq madaniyati problemasining paydo bo'lishi va asoslanishi. Toshkent, "Fan", 1973.
3. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. Toshkent, 1980.
4. Po'latov I. Ahmedova H. Nutq madaniyatini shakllantirish usullari. Toshkent. 2008.



MATN VA LUG'AT BILAN ISHLASH YO'LLARI

Qabulova Ozoda Rajabovna

Bog'ot tumani 15- maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
e-mail:qabulova@mail.ru

Annotatsiya: maqolada darslik va u bilan ishlash, nazariy ma'lumotlar bilan birga mavzu ko'lamini keng bo'lgan matnlar, murakkab bo'lgan asarlardan olingan parchalar va sintaktik tahlil uchun berilgan mumtoz adabiyotdan olingan gaplar ustida ishlash yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ona tili mashg'uloti, tilni o'qitish, matn va u bilan ishlash, darslik

Ma'lumki, yangi avlod darsliklari ko'p yillik an'analarga o'zgartirish kiritib, jahonning ta'limi rivojlangan davlatlar andazasiga mos ravishda va o'zbek ta'limi modelining yutuqlarini o'zida aks ettirishga yo'naltirilgan. Keyingi yillarda bosqichma-bosqich 2017-yili 6-7-10-sinf darsliklari, 2018-yili 11-sinf darsliklari, 2019-yili 8-9-sinf darsliklari yangi nashrdan chiqdi. Darsliklarda oldingi nashrdagi yutuqlar saqlab qolinishi bilan birga, ularga yangicha yondashuv bilan qaraldi. Har bir sinflarda nazariy ma'lumotlar uchun ajratilgan soatlar qisqartirilib, o'rniga o'quvchi dunyoqarashi, tahliliy fikrlashi, so'z boyligiga ega bo'lishi nazarda tutilgan. Matnlar ustida ishlash" turkum mavzular kiritilgan. So'zlarning imlo va izohli lug'atlari berib borilgan. Buni 8-sinf ona tili darsligi misolida ko'radigan bo'lsak, 102 soat yillik dars soatidan 17 soat "Matn va lug'atlar ustida ishlash", "Mumtoz matn va lug'atlar ustida ishlash", undan tashqari 9 soat dars "Ijodiy matn. Insho va uning turlari" turkum mavzulari uchun ajratilgan. Buni raqamlar bilan ifodalasak, yillik soatning 25 foizi matnlar ustida ishlash uchun berilgan. Yangi darslik, yangicha qarashlar, yangi yondashuvlar ham o'qituvchi, ham o'quvchi uchun murakkablik tug'dirgani tabiiy. Hattoki shu darslik tahlili uchun ijtimoiy tarmoqlarda alohida telegram guruhlari ochilgani, unda ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari birlashib, maslahatlashib har bir mavzu ustida ishlab borishgani darslikning barcha uchun murakkablik tug'dirganidan dalolat beradi. Darslik nazariy ma'lumotlar bilan birga mavzu ko'lamini keng bo'lgan matnlar, anchayin tahlili murakkab bo'lgan asarlardan olingan parchalar va sintaktik tahlil uchun berilgan mumtoz adabiyotdan olingan gaplar bilan ham o'qituvchini, ham o'quvchini o'ylantirdi. 1.Topshiriq sifatida berilgan so'zlar izohini o'rganish uchun o'quvchi tugul o'qituvchilar ham "O'zbek tilining izohli lug'ati" to'liq ta'minlanmagan. Izoh sifatida: "O'zbek tilining izohli lug'ati" ning yangi nashri taqdimoti iyul oyida bo'lib o'tdi, lekin u kirill yozuvida. Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek yozuvidagi nashri taqdimoti sentabr oyiga mo'ljallanibdi. Asosiy lug'atga talabgor auditoriya keyingi avlod vakillari ekanligini inobatga olsak, nega avval lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek yozuvida nashr etilmagani hayratlanarli.

2."Mumtoz asarlar lug'ati", "Navoiy asarlari lugati"ni topish qiyin, chunki bu lug'atlar ancha yillar avval nashr qilingan. Qog'oz varianti hamma o'qituvchilarda ham bor emas. Dars vaqtida o'quvchi uyali aloqa vositalardan ta'lim muassasalarida ishlatishga qo'yilgan cheklov tufayli elektron variantidan foydalanish imkoniyati mavjud emas.

3.O'qituvchi salohiyatining yetarli emasligi, chunki barcha OTMlarda ham "Mumtoz adabiyot" fanlari birdek o'qitilmaydi. Ayniqsa, aruz nazariyasi barcha ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarning og'riqli nuqtasi hisoblanadi.Darslikda berilgan ruknga bo'lib o'qish topshirig'ini bajarish uchun, avvalo, rukn nima, hijo nima kabi so'roqlarga javob bera olishi kerak.

4.Ba'zi lug'at uchun darslikda berilgan so'zlar va izohi o'rtasida nomuvofiqlik mavjud. Masalan, "Mengizlari gul-gul, mijjalari xor, Qaboqlari keng-keng, og'izlari tor" (85- bet, 117- topshiriq) baytida aslida "yuz" ma'nosini bildituvchi "Mengiz" so'zining izohi sifatida "yuzdagi xol" jumlasini berilgan. "Xol" so'zi "meng" so'zining muqobili hisoblanadi. Agar o'quvchi shu izoh bo'yicha tahlil qilsa, shoir nazarda tutgan badiiy go'zallikdan ancha uzoqlashgan bo'lmaymizmi?! Xuddi shunday xatolikka 101-betdagi 151-mashqda jadval asosida berilgan lug'atni misol keltirishimiz mumkin. Unda "meva" so'zi berilgan, lekin jadvalda uning muqobili bo'lgan "samar" so'zi yo'q. 5.O'qituvchilar uchun "O'qituvchi kitobi" qo'llanmalarining mavjud emasligi. Mening fikrimcha, o'quv dastur yaratilgach, darslik bilan bir paytda "O'qituvchi kitobi" qo'llanmasini ham yaratish, uni ham sinovdan o'tkazish zarur. Yuqoridagi sabablarni keltirishdan maqsad darslikni qoralash emas, balki bunday darsliklar yaratishdan avval bu darslikka ilova tarzida lug'atlar, metodik



qo‘llanmalar, darsning samarali metodologiyasini yaratish zarur ekanligini ta’kidlamoqchiman. Xo‘p, darsda matnlar, lug‘atlar ustida ishlandi. Yuqoridagi hech muammo mavjud emas va darsdan ko‘zlangan maqsadga erishildi deylik, lekin bu topshiriqlar, matnlar o‘quvchi hayotida qanchalik ahamiyatga ega? Yetarli salohiyat va mahoratga ega bo‘lmagan o‘qituvchi “Matn ustida ishlash” turkum mavzularini qanday o‘qityapti? O‘quvchi matnni o‘rganayotganda unga muhim deb qarayaptimi? Shu matnlar orqali olgan bilimi, hech yo‘q, OTMga kirishida asqotyaptimi? To‘g‘ri, o‘tgan yillarda 10-11-sinfidagi lug‘ati berilgan so‘zlar testga qamrab olindi, lekin matnlar-chi? Ular asli nima uchun darslikka kiritilgan edi? O‘quvchi uchun eng zerikarli dars-matn ustida ishlangan dars. Chunki unda uqish kerak bo‘lgan grammatika nisbatan kam, matnlar asarlardan olingan parcha bo‘lgani uchun undan olingan tushuncha ham yetarli bo‘lmaydi. 8-sinf ona tili darsligida berilgan matnlar esa mumtoz adabiyot matnlaridan parcha ekanligi yanada qiyinchilik tug‘dirdi. Kitobxonlik darajasi avvalgi avlodlarga nisbatan maqtarli bo‘lmagan bugungi o‘quvchiga zamonaviy badiiy adabiyotlarni o‘qitish katta ish bo‘lib turgan bir paytda mumtoz matn mag‘zini chaqish uchun 1 soat kamlik qiladi. Sinf o‘quvchilari salohiyatining turlicha ekanligini inobatga olsak, eng zerikarli, eng samarasiz darslar matn bilan ishlash soatlariga to‘g‘ri keladi. Chunki yuqorida sanab o‘tgan muammolarni inobatga olsak, o‘quvchi matnni mustaqil tahlil qilay desa, lug‘at kitobi yo‘q, mag‘zini chaqay desa, tasavvufiy matn. Bunday matnlar alohida bilim va tayyorgarlik talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ne‘matov va b. O‘zbek tili struktural sintaksisi. -T.: Universitet, 2000
2. Mengliyev B. O‘zbek tilining struktur sintaksisi. –Qarshi, 2003
3. G‘ulomov A, Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. -T.: 1989
4. Qurbonova M. Hozirgi zamon o‘zbek tili. -T.: 2002



ОНА ТИЛИ ФАНИНИ О'QITISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURINI АҲАМИЯТИ

Xalilov Nuriditdin Fayzitdinovich

Surhondaryo viloyati Uzun tumani

3 – KBFCHO'IMI ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarida xalqaro baholash dasturlarini ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Pisa, xalqaro baholash dasturlari, ergash gap


PISA (*inglizcha - Programme for International Student Assessment*) – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, ona tili va adabiyoti, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan. **PISA** bo'yicha bahoning 50 ballga oshishi har yillik Yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning 1% ga o'sishini ta'minlaydi?

Qanday xalqaro baholash dasturlari mavjud?



Ma'lumki, ergashgan qo'shma gaplarda ikki yoki undan ortiq sodda gaplar o'zaro hokim-tobellik munosabati orqali bog'lanadi. Ergash gap bosh gapga tobe bog'lanib, bosh gapdagi biror bo'lakni izohlab keladi. Bosh va ergash gap grammatik hamda mazmunan jips bog'lanib, yaxlit birlikni tashkil etadi va umumiy bir fikrni ifodalaydi. Ular o'zaro fe'lining amaliy shakllari (sifatdosh, ravishdosh va shart fe'li), yordamchi so'zlar orqali munosabatga kirishadi. Ergashgan qo'shma gaplarning guruhlanishi ergash gapning bosh gapdagi qaysi bo'lakni izohlab kelishiga qarab belgilanadi.

Kesim ergash gapli qo'shma gaplar





Ma'lumki, o'quvchilarga mavzuni tushuntirishda g'ayri odatiy usullar bilan tushuntirish kerak. O'quvchilarga ona tili fanini ahamiyati hozirgi kunda juda muhim ekanligi, o'zbek tilini rivojlantirish yo'llarini o'rgatish har bir o'qituvchini muhim vazifasi hisoblanadi. O'quvchilarimizi xalqaro baholash dasturiga tayyorlash har bir o'qituvchinin oldidagi vazifa hisoblanadi.

Bahs – munozara darsini samarali o'tkazish uchun talabalar muhokama qilinadigan matn yo'ki mavzu bo'yicha keng tushunchaga ega bo'lishlari, uni yaxshi o'qib, o'rganib chiqqan bo'lishlari darkor. Buning uchun o'quvchilardan quyidagilar talab qilinadi:

- bahs – suhbatda faol ishtirok etish;
- so'zlovchi fikrini diqqat bilan tinglash;
- o'z fikrini shoshmasdan, aniq ifodalash;
- munozara davomida suhbatdoshiga nisbatan hurmat saqlash;
- nutq odobi va madaniyatiga rioya qilish;
- mavzudan chetga chiqmaslik;
- o'z fikrini isbotlashda aniq, ishonarli dalillar topish;
- bahslashayotganlarning haq ekanligi bilinsa, uni tan ola bilish va hokazolar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ona tili fanidan xalqaro baholash dasturiga o'quvchilarni o'qitish bo'yicha metodik qo'llanma.
2. Ona tili darslik 9 sinf Toshkent 2018yil
3. Internet ma'lumotlari



APPLICATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ENGLISH LESSONS

Xaydarov Otabek Toshmatovich

Uzun district of Surkhandarya region

3 - KBFCHO'IMI English teacher

+ 99899 662 85 26

ABSTRACT: This article describes the steam approach, interactive methods that can be used in English lessons, and their importance in English.

KEYWORDS: STEAM, rolling snow pile, ripe grapes, garden laundry method.

STEAM is one of the most innovative methods in the world education system today. This method allows you to conduct a mixed type of education and develop the skills to apply the acquired theoretical knowledge in everyday life. STEAM is an in-school and out-of-school project is an innovative technology that allows you to carry out educational and research activities. With this method, sciences are taught in an integrated way, not in separate networks, showing the general interdependence. In addition to showing that science is relevant to everyday life, technology can also show students 'creativity. This approach presents a number of tasks to students 'activities, with the student learning to be creative in solving them. With the help of such tasks, the student not only invents ideas, but also learns to implement them in everyday life. In this way, the student learns to solve their problems within the framework of the tasks set and the available opportunities. The STEAM approach is to teach how to apply the acquired knowledge in real life.



Primary Methods of Teaching English

Here I will list out the primary methodologies for teaching English. Some of them are time tested practices, and some are new. Find below the graphical representation of a comparison between the three methods. Some of the methods of teaching English under the humanistic approach are: Now let us sum up specific basic approaches to teaching English in modern times. Operative Tips for Teaching English to Beginners.

In Conclusion


"Classroom", a word that brings to our mind a setting wherein a teacher stands in front of a class of 30 to 40 students, delivering a lecture with a specific gravity in his/her voice. This is the method of teaching that was prevalent when we were in school some two decades ago. However, things have changed over the years, and though it was one of the most effective methods of teaching English to young students, it no longer considered the same now. This is due to various reasons, maybe because:

- the present generation gets exposure to the world through social media.
- their knowledge base is augmenting by the information available on the internet.
- the students nowadays are more impatient and to grab their attention, teaching methods need to cater to their dynamic thinking process.

Language teaching, like any other topic, has undergone a lot of changes. It has shifted to role-plays, interactive games, short visuals, etc. from the traditional ways, such as lectures by facilitators with only a blackboard to support and spell repetition and grammar worksheets, have shifted to role-plays.

HOW TO PEREPHRASE.

This method of teaching English is a classic one used since the 16th century. This approach was improvised for teaching the Latin language, which was not commonly learned and spoken by people. The method of teaching English focused on translating the texts in Latin to the native language and then gaining it, in line with the grammatical rules and vocabulary of Latin. The rote learning method is the most used method to learn vocabulary. Later on, this method was used to learn other languages that were considered a second language. Thus, it applies to English as well. This approach lacks in the fact that it is not a very good way of teaching to communicate appropriately in English.



This method of teaching English is a classic one used since the 16th century. This approach was improvised for teaching the Latin language, which was not commonly learned and spoken by people. The method of teaching English focused on translating the texts in Latin to the native language and then gaining it, in line with the grammatical rules and vocabulary of Latin.

References:

1. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Modular learning technologies. - T.: Science and Technology Publishing House, 2007
2. Ishmuhamedov R., Abdukodirov A., Pardaev A. Innovation in education technology / Practical recommendations. - T.: Talent Fund, 2008.



INGLIZ TILINI O'QITISHDA NOAN'ANAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xusainova Dilrabo Ibragimjonovna
Raxmatova Umida Mirzaolimovna

Farg'ona viloyati Yuridik texnikumi o'qituvchilari

Annotatsiya: Maqolada xorijiy tillarni o'qitish xususan ingliz tilini o'qitishda noan'anaviy texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati xususida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlari: xorijiy tillar, noan'anaviy texnologiyalar, video darslar.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012-yilning 10-dekabrida qabul qilingan "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori rasmiy e'lon qilinganligi mamlakatimizda chet tillarni jahon andozalariga mos ravishda tizimli, chuqur o'rganish uchun qo'yilgan ilk qadam bo'ldi.

Hozirgi kunda chet tillarni o'rganishga bo'lgan talab va qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, bu tillar ichida ingliz tiliga bo'lgan munosabat ancha yuqori darajada.

Ma'lumki, ingliz tilini o'rgatish uzoq muddatli va mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Fanlar orasida ingliz tili alohida o'rin egallaydi, chunki u asosiy internatsional til bo'lib, bilimda gumanistik mohiyatni ifodalaydi, o'quvchi va talabalarni ijodiy qobiliyatini shakllantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Ingliz tili darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish dars samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning xorijiy tilga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

O'quvchilarga chet tilini to'g'ri o'rgatish va o'quvchini tilga qiziqtirish o'qituvchidan katta mas'uliyat talab etadi. O'qituvchi darsda qanday usuldan va qanday texnik vositalardan, qanday ko'rgazmali qurollar yoki tarqatma materiallardan foydalanishi o'quvchining darsga qiziqishini va darsning talab darajasiga javob berishini ta'minlab beradi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni ingliz tilida yozma va og'zaki nutqqa o'rgatishda axborot kommunikatsion texnologiyalar, ko'rgazmali qurol, tarqatma materiallarning roli juda katta, chunki o'quvchi yangi mavzuni tinglar ekan, u har bir jumlaning o'zicha tasavvur qiladi, hamda unga qaysidir ma'noda ta'rif beradi. Shaxsni zamonaviy muloqot matnlarini yaratishga yo'naltirish, interfaol muloqot (masofadan o'qitish, o'qish, Internet orqali mintaqalararo muloqotga kirishish, elektron pochta xizmatidan foydalanish) ga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilini o'rganish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan biri bo'lgan video salmoqli o'ringa ega. Sababi rang-barang ko'rinishlar, jozibador musiqa, videorolik kontentiga mos yozuvlar o'quvchilarning ko'rish, eshitish va taqdimotni o'qish imkonini beribgina qolmay, fanga bo'lgan motivatsiyani oshiradi. Agar videorolik maqsadli, ya'ni muayyan mavzuga yo'naltirilgan bo'lsa, bunday vaziyatda o'quvchilar yangi bilimlarni tez va oson ravishda o'zlashtirishadilar. Mavzulashtirilgan videoroliklar dars o'tish davomida quyidagi uch bosqichda o'quvchilarga taqdim etish maqsadga muvofiq:

1. Videorolikni taqdim etishdan oldin o'quvchilarga mavzuni muhtasir ravishda tushuntirib o'tish va bahs uyushtirish. Sababi videodan oldingi taxmin qilishga asoslangan mashqlar, aqliy hujumlar ularning diqqatini jamlashga, fantaziyasini oshirishga yordam beradi.

2. Videoroliklarni tomosha qilish davomida qisqa tanaffuslar qilish, mavzuga doir savol-javoblar o'tkazish kerak. Bu ularni diqqatini va faolligini oshirishga yordam beradi.

3. O'quvchilar tomosha qilib bo'lishganidan so'ng videorolik asosida turli xil o'yinlar, muammoli vaziyatlar, debatlar hamda rolli o'yinlar uyushtirish olingan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Ingliz tilini o'qitishda noan'anaviy texnologiyaning asosiy mohiyati ta'limda talabalarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni talabalarning aksariyat ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi texnologiyaning joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ahmadaliyev A.M., Qosimov A.X. Innovatsion faoliyat va ilg'or pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: 2006
2. Jalolov J. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – T.: 1996



РАЗВИТИЕ ПИСАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ УЧЕНИКА

Абдуллаева Мухаё Ахмаджановна

преподаватель русского языка и литературы
ГСОШ №1 города Наманган, Наманганской области.

Аннотация. Укрепление письменных навыков учеников означает выделение времени для циклов продуктивной обратной связи и повторения.

Обучение письму часто недооценивается в классе, где плотный график и срочность выполнения академических требований, как правило, вытесняют трудоемкий процесс обучения детей навыкам хорошего письма. Но это должно измениться, потому что учащимся по-прежнему трудно «писать так, как от них ожидают в ВУЗе и на рабочем месте».

Ключевые слова: навыки, моделирование, стратегии, письмо, процесс.

Для улучшения совершенствования письменной деятельности ученика, рекомендуется принять систему ученичества. Концепция когнитивного ученичества - где учителя «моделируют, как выполнять задание, рассказывая о своих мыслях на каждом этапе, а ученики повторяют процесс, объясняя свои действия по ходу», - не нова, но редко практикуется в классе. Если бы такая частая практика, размышления и коучинг были нормой, ученикам пришлось бы тратить гораздо больше времени на письмо, обучать их более интенсивному процессу письма и работать над гораздо более высокими ожиданиями, чем мы видим во многих классах.

Не одобряются учебные планы «шириной в милю и глубиной в дюйм», в которых учащиеся трудятся над написанием подсказок с поверхностной обратной связью. Создание среды, в которой учащиеся «интенсивно работают над своей работой, тратя много времени на пересмотр и анализ отзывов учителей, более продуктивно, чем «штамповать десятки слегка отредактированных работ в течение учебного года».

Исправление под надзором учителя имеет решающее значение, но ученики могут часто писать и анализировать глубже - и совершать серьезные изменения - в части своей письменной работы. Если ученик пишет только «большие» сочинения, он не получает достаточно практики для значительного совершенствования. Улучшение письма основано на практике, когда на странице появляются слова - их много. Нет никаких ярлыков.

Ученики должны писать от 30 до 60 минут каждый день. Логика этого заключается в том, что для написания разработки нет ничего важнее, чем потратить часы на определение и уточнение своего голоса, организацию и реорганизацию своих мыслей и изучение того, как слова перетекают из головы на страницу.

Тем не менее, это обязательство, как правило, заставляет учителей нервничать: добавление большего количества письменных работ обычно означает увеличение времени для обратной связи. Но это не всегда так. Другими словами, сосредоточьтесь на том, чтобы дать глубокую обратную связь по нескольким проблемам более высокого порядка в сочинении учащегося, а не отмечать каждую отдельную ошибку, а затем проведите учеников через несколько циклов проверки, чтобы они узнали, каково это работать интенсивно. Учитель побеждает, потому что углубление в нескольких темах обычно занимает меньше времени, чем отметка всего, а учащиеся выигрывают, потому что они получают четкую и качественную обратную связь, которая помогает лучше преподавать им самые важные уроки.

Ученикам важно видеть, как взрослые пишут, чтобы они почувствовали беспорядок процесса, переосмысление и пересмотр, происходящие на протяжении всего процесса, и увидели, как даже учителя пытаются найти правильные слова, правильную последовательность или наиболее убедительную структура предложения или абзаца.

Я моделирую работу над написанием идеального первого предложения, построением эффективных переходов и выбором четкой дикции. Пока я пишу, ученики также видят, как я постоянно совершенствую свою работу, часто перемещаясь между абзацами, чтобы настроить структуру и повествование. Тем временем я задаю вопросы о своем мыслительном процессе, например, почему я решила изменить предложение или пересмотреть свой синтаксис.

В процессе работы можно побуждать учеников отмечать ошибки во время написания,



а иногда даже специально включать ошибки, чтобы «убедиться, что ученики обращают внимание», а также чтобы продемонстрировать, как преподаватель решает проблемы в своем письме.

Очевидно, что качество обратной связи с учителем важно и должно выходить за рамки поверхностной критики грамматики и синтаксиса, чтобы продвигать учащихся вперед в их написании. Делайте акцент на существенных комментариях и предложениях, а не просто указывайте, где ученики допустили ошибки. Обратная связь, как правило, гораздо более полезна, когда она ставит перед учащимися важные вопросы, подсказывает, как они могут реорганизовать или расширить написанное.

Чтобы не ограничиваться грамматическими ошибками, рекомендуется ориентироваться на действия с обратной связью. Ученики должны видеть, что предпринятые действия могут принести пользу их будущему письму, а не только исправить ошибку в текущей работе. Например, когда я работаю с учениками над сочинением в школе, я могу сказать: «Обратите внимание в этом абзаце, как вы начинаете семь предложений с «я», за которым следует глагол действия. Как можно изменить некоторые из этих предложений, чтобы все они не звучали одинаково? Содержание хорошее, но давайте поработаем над разнообразием предложений». Затем ученики предлагают альтернативы, которые можно обсудить с ними.

Также предостерегается от чрезмерной разметки сочинений учеников, что может обескуражить и подавить учеников, не позволяя им участвовать в процессе редактирования и расти как писатели.

Вместо того, чтобы закрасить работу ученика красной ручкой, «выбирайте фокус для обратной связи с каждым заданием».

Ученикам необходим опыт написания в самых разных жанрах и творческих форматах, таких как сценарии аудио и фильмов, комиксы и ведение блога, например. Им также следует писать поперек учебной программы. Когда учащиеся практикуют письмо на уроках, помимо русского языка и литературы, это мощный способ органично развить свои навыки письма, а тематика определяет их подход к задаче.

Включение письма в другие предметные области естественным образом расширит жанры, в которых ученики пишут, поскольку они учатся писать лабораторные отчеты по естественным наукам и высказывания художников на уроках искусства. Классы социальных наук являются особенно благоприятной средой для развития навыков письма и аргументации.

Исследования показывают, что помимо простого улучшения навыков письма учащихся, написание в учебной программе не только дает учителям возможность оценить, насколько хорошо учащиеся усваивают материал, но также улучшает способность детей вспоминать информацию, связывать разрозненные концепции и синтезировать информацию в новые способы.

Использованная литература:

1. Егурнова А. А. Культура письменного речевого общения в обучении студентов-лингвистов // Концепт: научно-методический электронный журнал. 2013.
2. Егурнова А. А. Методические рекомендации по написанию аргументативного эссе // Концепт: научно-методический электронный журнал. 2014. Егурнова А. А. Педагогические условия формирования культуры письма у лингвистов // Высшее образование сегодня. 2009.
3. Безруких, М.М. Этапы формирования навыка письма [Текст] / М.М.Безруких. - М., 1991.
4. Борякова, Н.Ю. Особенности формирования речевого высказывания старших дошкольников с ЗПР: Дисс. ... канд. пед. наук [Текст] / Н.Ю.Борякова.- М., 2008.



TYPES OF GAMES IN TEACHING ENGLISH

Begmatova Feruza G'ulomjonovna,
an English teacher of Namangan region,
Pap district, school # 30 Tel: 936723864

Annotation: The purpose of this article is to analyze the issue of vocabulary teaching with the use of games and plays. The main aim of the article is to examine the effectiveness of the use of games in vocabulary teaching.

Keywords: games, communicative, ability, students, involve, different, includes

Games help students to make and sustain the effort of learning. Games provide language practice in the various skills – speaking, writing, listening and reading. They encourage students to interact and communicate. They create a meaningful context for language use. Hadfield offers two classifications of language games. She divides them into linguistic (these focus mainly on accuracy) and communicative games (these are based on successful exchange of information). Hadfield's second classification has more categories and usually includes both linguistic and communicative aspects. These games are as follows:

1.Sorting, ordering, or arranging games. For example, students have a set of cards with different products on them, and they sort the cards into products found at a grocery store and products found at a department store. What are sorting activities? Sorting is the ability to identify similarities and difference among a set of objects, and to group and name them accordingly. This kind of organization is prominent in an assortment of disciplines, including math, science, and music. Sorting is systematic. It's ordering. It's comparing and contrasting. What is the difference between matching and sorting? The main difference between matching and sorting is that matching is usually done between two objects and sorting involves separating objects into groups according to their similarities and it is usually done on more than two objects.

2.Information gap games. In such games, one or more people have information that other people need to complete a task. For instance, one person might have a drawing and their partner needs to create a similar drawing by listening to the information given by the person with the drawing. An information gap activity is an activity where learners are missing the information they need to complete a task and need to talk to each other to find it. Learner A has a biography of a famous person with all the place names missing, whilst Learner B has the same text with all the dates missing.

3.Guessing games. These are a variation on information gap games. One of the best known examples of a guessing game is 20 questions, in which one person thinks of a famous person, place, or thing. The other participants can ask 20 yes/no questions to find clues in order to guess who or what the person is thinking of. Activity. "Guess Who?". How to Play: One person sits with his or her back to the group. One child is chosen from the group to say a predetermined phrase. The person sitting facing away from the group has to figure out who is speaking.

4.Search games. These games are yet another variant on two-way information gap games, with everyone giving and seeking information. Find Someone Who is a well-known example. Students are given a grid. The task is to fill in all the cells in the grid with the name of a classmate who fits that cell, e.g. someone who is a vegetarian. Students circulate, asking and answering questions to complete their own grid and help classmates complete theirs.

Name: _____ Date: _____

shoe		x	k	c	o	i	b
duck		l	n	e	e	r	g
doll		l	g	l	o	b	e
globe		o	q	n	c	w	c
block		d	n	s	h	o	e
green		u	w	k	c	u	d

B	L	J	D	U	C	K	F	X	J
E	U	K	Y	E	Y	A	Z	T	H
E	L	T	H	F	K	F	T	U	C
C	Y	E	T	K	C	X	F	R	D
Y	H	J	P	E	Y	Z	E	T	O
F	F	I	S	H	R	H	Y	L	G
H	C	X	J	K	A	F	Z	E	X
J	Y	H	A	F	J	N	L	H	E
O	W	L	Z	J	K	C	T	Y	H

☒ CAT
 ☐ ELEPHANT
☐ DOG
 ☐ DUCK
☐ OWL
 ☐ FISH
☐ TURTLE
 ☐ BUTTERFLY



5. Matching games. As the name implies, participants need to find a match for a word, picture, or card. For example, students place 30 word cards, composed of 15 pairs, face down in random order. Each person turns over two cards at a time, with the goal of turning over a matching pair, by using their memory.

6. Labelling games. These are a form of matching, in that participants match labels and pictures. This labeling game can help children to combine the visual learning side of learning the parts of the body with the tactile movement of placing the title of each part on the picture. Try labeling each part here to see if you know all the parts of the body too.

7. Exchanging games. In these games, students barter cards, other objects, or ideas. **8. Board games.** Scrabble is one of the most popular board games that specifically highlights language.

9. Role play games/dramas. Role play can involve students playing roles that they do not play in real life, such as dentist, while simulations can involve students performing roles that they already play in real life or might be likely to play, such as customer at a restaurant.

In conclusion, we can say play can be described as the activity that is performed for pleasure and enjoyment. In many cases, play is culture dependent. Young learners show a natural need for play which makes it a highly useful and effective form of interaction in the foreign language classroom. Play refers, then, not so much to the language content or the actual physical materials, tools, or aids that children handle but rather the atmosphere and the specific setting in which they interact.

References:

1. Hadfield J. Beginners' communication games / J.Hadfield. – Longman, 1999.
2. Carrier, M., & the Centre for British Teachers. (1985). Take 5. Games and activities for the language learners . GB: Nelson and Sons Ltd.
3. Scott, Wendy, A. and Ytrberg, Lisbeth, H. 2001. Teaching English to Children. London: Longman.



INGLIZ TILI FANIDA O'QUVCHILARNING O'QISH QOBILIYATINI O'STIRISH

Dehqonov Alisher Abdumalikovich

Namangan tumani 16-maktab

ingliz tili fani o'qituvchisi

tel: 94-277-57-48

e-mail:dehqonov@mail.ru

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tili fanida o'quvchilarning o'qish ko'nikmasini rivojlantirish va buni amalga oshirishda ingliz tili o'qituvchisining vazifasi, nutq faoliyati bo'yicha fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: nutq, nutq ko'nikmasi, ingliz tili.

Hozirgi kunda ingliz tiliga e'tibor tobora ortib bormoqda. Shu tufayli o'quvchilarda fan bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish muhim masala bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, o'qish ko'nikmasi alohida jarayondir. Ingliz tilida o'qish-nutq faoliyati turi hisoblanadi. O'qish - ko'z bilan ko'rayotgan harf, harf birikmalari, so'zlar, gaplarni ovoz chiqarib, chiqarmay o'qish va o'qiganining mazmunini tushunish, o'qib ma'lumot olishdir. O'qish yozma nutqda berilgan matndan ma'lumot olish turidir. O'qish-tanish til materiallari asosida notanish mazmunli matnni o'qib ma'lumot olish, mazmunini tushunishdir. O'qish aloqa (kommunikatsiya) qilishning bir turidir. O'qish orqali o'quvchi ingliz tilida gaplashiladigan mamlakatlar tili, madaniyati, hayoti, tarixi, urf-odati bilan tanishadi. O'qish ma'lumot olish manbaidir. O'qish kishilarning kommunikativ-ijtimoiy faoliyat sohasiga taalluqli bo'lib, unda u yozma shakldagi so'z orqali muomalani ta'minlaydi. Kishilarning turmush, ta'lim va ishlab chiqarish sohalaridagi faoliyatlarida o'qishdan keng foydalaniladi. O'qish orqali ma'lumot olish turli faoliyatlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. O'qishda boshqa har qanday faoliyatdagi kabi mazmun va jarayon rejalari mavjud bo'lib, birinchisiga doimo katta ahamiyat beriladi. Faoliyatning predmet mazmunini tashkil qiluvchilar o'qishning mazmun rejasi sanaladi. Faoliyat jarayonining elementlari o'qishning jarayon tomoni hisoblanadi. Faoliyat mazmuniga, eng avvalo, uning maqsadini, natijalarini kiritadilar.

